



## Ernest Seton-Thompsonning “Lobo” hikoyasida inson va bo’ri oppozitsiyasi.

Xadicha Mamatqulova Zayniddin qizi

Turon Universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasida o’qituvchisi

mamatkulovaxadicha@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20291925>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-may 2026 yil

Ma’qullandi: 16-may 2026 yil

Nashr qilindi: 19-may 2026 yil

### KEYWORDS

*inson va bo’ri, hayvonlar obrazi, oppozitsiya, badiiy talqin. Falsafiy jihat, erkinlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola Ernest Seton-Thompsonning “Lobo” hikoyasida inson va bo’ri o’rtasidagi oppozitsiyani badiiy hamda falsafiy jihatdan tahlil qiladi. Asarda Lobo obrazi erkinlik, sadoqat, va tabiat qonunlarining timsoli sifatida keladi. Inson obrazi esa aql, hukmronlikka bo’lgan istak bilan ko’rsatiladi. Inson obrazi ovchilar timsolida ko’rib chiqilib, ularning tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishi yoritib berilgan. Shuningdek, hikoyaning fojeali yakuni orqali, muallif tabiatga nisbatan tanqidiy munosabati yoritilgan.*

**Аннотация:** В данной статье художественно и философски анализируется оппозиция между человеком и волком в рассказе Эрнеста Сетона-Томпсона «Лобо». Образ Лобо представлен как символ свободы, преданности и законов природы. Образ человека, напротив, показан через разум и стремление к господству. Человек рассматривается в образе охотников, стремящихся установить власть над природой. Кроме того, через трагический финал рассказа раскрывается критическое отношение автора к вмешательству человека в природу.

**Ключевые слова:** Ключевые слова: человек и волк, образ животных, оппозиция, художественная интерпретация, философский аспект, свобода.

**Abstract:** This article analyzes the opposition between humans and the wolf in Ernest Seton-Thompson’s story “Lobo” from both artistic and philosophical perspectives. In the story, the character of Lobo is presented as a symbol of freedom, loyalty, and the laws of nature. The human image, on the other hand, is portrayed through intelligence and the desire for domination. Humans are represented through the image of hunters, whose стремление to dominate nature is highlighted. Furthermore, through the tragic ending of the story, the author’s critical attitude toward human interference in nature is revealed.

**Keywords:** Keywords: human and wolf, animal imagery, opposition, artistic interpretation, philosophical aspect, freedom.

### KIRISH

Ingliz yozuvchisi Ernest Seton-Thompson 1860-yil 14-avgustda Angliyada tavallud topgan. Uning avlodlari tog’liklardan bo’ladi. U o’z asarlarida yovvoyi tabiat va hayvonlar hayotini chuqur badiiy va ilmiy asosda tasvirlagan ijodkorlardan biridir. Uning asarlari, “Yovvoyi yo’rg’a”,

“Hayvonlar- qahramonlar”, “Jonivorlar haqida hikoyalar” “Lobo” hayvonlar obrazini keng ko‘lamda ochib bergan va hayvonlarga nisbatan iliq munosabat uyg‘otgan. Uning “Lobo” hikoyasi hayvonlar haqidagi eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, unda bo‘ri obrazi orqali inson va tabiat o‘rtasidagi murakkab munosabatni yaqqol namoyon etgan. Mazkur hikoyada inson va bo‘ri o‘rtasidagi oppozitsiya nafaqat jismoniy kurash, balki axloqiy va falsafiy qarama –qarshilik ham namoyon bo‘ladi. “Lobo” hikoyasida isnonlarning tabiatga bolgan hukmronlik qilishi yaqqol ko‘rsatib berilgan. Bo‘ri esa sadoqat va tabiatning ramzi sifatida ochib berilgan.

Hikoyaning markazida Lobo – kuchli, aqilli va tajribali bo‘ri turadi. U oddiy yirtqich emas, balki o‘z podasining yetakchisi, strategik va erkinlik timsolidir. Yozuvchi Lobo obrazini kata hurmat va ehtirom bilan tasvirlaydi. U insonlar qo‘ygan tuzoqdan ustalik bilan qochishi, ovchilarning harakatini oldindan sezishi, o‘z hayotini himoya qilish uchun barcha imkoniyatardan foydalanishi bilan ifodalanadi. Bu jihatlari hayvonlarning ongli harakatlari va moslashuvchanligini ko‘rsatib beradi. “Lobo — Currumpaw bo‘rilarining qiroli edi: kuchli, ayyor va yengilmas.” deb ta‘kidlaydi Seton-Thompson (1898). Lobo obrazi orqali, yozuvchi hayvonlarning o‘ziga hos aql va hissiyotlari borligini namoyon qiladi. Ayniqsa uning juftiga bo‘lgan sadqati alohida ta‘kidlanadi. Bu esa hayvonlarning emotsional bog‘liqligi mavjudligini aks ettiradi. “Lobo Currumpaw bo‘rilarining qiroli edi — kuchli, ayyor va yengilmas.”

Hikoyada insonlar ovchilar sifatida tasvirlanadi va asosiy maqsadi Loboni qo‘lga olish yoki yo‘q qilish. Insonlar aql, tajriba va o‘zlarining mahoratlarini ishga solib tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishadi. “Biz bo‘rilarga qarshi tinimsiz urush olib bordik, ayyor inson o‘ylab topa olgan barcha usullardan foydalandik.” deb takidlangan hikoyada (Seton-Thompson, 1898).

Asarning markaziy g‘oyasi inson va bo‘ri o‘rtasidagi oppozitsiyada namoyon bo‘ladi. Bo‘ri erkinlik timsoli bo‘lsa, inson uni qo‘lga olish orqali erkinlikni cheklaydi. Insonlar tomonidan qilingan tabiat ustidan qilingan hukmronlik hayvonlarning erkinligini cheklaydi. Bo‘ri tabiiy hayot tarzini ifodalaydi, o‘z instinktlariga ishongan holda tuzoqlardan qochadi, inson esa texnika ya‘ni har xil qurollar orqali ustunlikka erishadi. Bu qarama-qarshilik orqali asarda insonning hukmronlik istagi ochib beriladi deb ta‘kidlaydi Wilson (2008). Instinkt va aql tarafdama esa Lobo instinkt asosida harakat qilsa, inson ongli strategiyaga tayangan holda ish tutadi. Anderson (2002) ta‘kidlaganidek, hayvonlar haqidagi adabiy asarlarda ularning harakati ko‘pincha insoniy ong va hissiyotlar orqali talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, “Lobo” hikoyasida bo‘rining instinktiv xatti-harakati insonning ongli strategiyasi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. “Lobo inson tayyorlagan har bir tuzoqni, har bir zaharni va har bir hiylani bilgandek edi.”

Hikoyaning eng ta‘sirli nuqtasidan bir bu Lobo o‘z juftini (Blanka) yo‘qotgandagi hissiyotlar va uning ruhiy jihatdan sinishidir. “Blanka qo‘lga tushgach, buyuk bo‘rining kuchi ham yo‘qoldi.” Bu voqea uning ehtiyotkorligini susaytiradi va oxir-oqibat inson qo‘liga tushishiga olib keladi. Mazkur voqea hayvonlarning psixologik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvni hayvonlarning adabiy tasvirida emotsional chuqurlik va antropomorfik (insoniy xususiyatlarni yoki inson shaklini boshqa ob‘ekt, hayvon yoki tushuncha bilan bog‘lash jarayoni) talqinlarning kuchayishi bilan deb izohlaydi Brown (2010). Shu nuqtai nazardan, Loboning Blanka bilan bog‘liq ruhiy holati uning faqat instinkt bilan emas, balki hissiy bog‘liqlik va sadoqat asosida ham harakat qilishini ko‘rsatadi.

Blankaning yo‘qolishi Lobo uchun nafaqat ijtimoiy yo‘qotish, balki psixologik zarba sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu holat uning xatti-harakatlarida beqarorlik, ehtiyotsizlik va zaiflashuvni yuzaga keltiradi. Natijada insonlar tomonidan tashkil etilgan ov strategiyalari uning avvalgi aql va tajribasiga nisbatan ustun keladi. Muallif bo‘rining qayg‘usi va iztirobini insoniy darajada

tasvirlaydi. Shu orqali hayvon va inson o'rtasidagi chegaralar nisbiy ekanini ko'rsatadi. Lobo sevgisi va sadoqati bilan ayrim insonlardan ham yuksakroq ma'naviy darajaga chiqadi. Bu yakun hikoyaning falsafiy qatlamini yanada chuqurlashtiradi. Hikoya yakunida inson Loboni yengadi, ammo bu g'alaba ma'naviy mag'lubiyat sifatida tasvirlanadi. Ovchi Loboni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, ichki pushaymonlikni his qiladi. "Men bo'rini yengdim, ammo bu g'alabada hech qanday quvonch his qilmadim." deb ta'kidlaydi ovchi hikoyada. Chunki u oddiy yirtqichni emas, balki erkinlik va sadoqat timsolini yo'q qilganini angelaydi. Shu tariqa Seton-Tompson insonning tabiat ustidan hukmronligi vaqtinchalik ekanini, ammo tabiatning ma'naviy qudrati undan ustun turishini ko'rsatadi.

Demak, "Lobo" hikoyasidagi bo'ri va inson oppozitsiyasi falsafiy jihatdan tabiat va sivilizatsiya o'rtasidagi abadiy ziddiyatni ifodalaydi. Lobo esa jismonan yengilgan bo'lsa ham, o'quvchi ongida erkinlik, sadoqat va tabiiylik timsoli sifatida yuksak obraz bo'lib qoladi.

Shu tariqa, hikoya faqat oddiy ov jarayoni va yirtqichni qo'lga olish voqealari haqida emas, balki undan ancha chuqurroq ma'no qatlamlariga ega bo'lgan badiiy-falsafiy asar sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ushbu qarama-qarshiliklar orqali inson va tabiat, instinkt va ong, jismoniy kuch va ruhiy kechinmalar o'rtasidagi muvozanat masalasini ko'taradi. Natijada asar o'quvchini nafaqat voqealar rivojiga, balki ularning ichki ma'nosiga, falsafiy mohiyatiga ham e'tibor qaratishga undaydi.

### References:

1. Seton, E. T. *Wild Animals I Have Known*. – New York: Scribner, 1898.
2. Anderson, M. "Animal Stories and the Problem of Anthropomorphism" // *Journal of Literary Studies*. – 2002. – Vol. 18, № 3. – P. 45–60.
3. Brown, L. *The Emotional Lives of Animals in Literature*. – London: Routledge, 2010.
4. Wilson, J. "Nature and Narrative in Seton's Works" // *American Literature Review*. – 2008. – Vol. 12, № 2. – P. 112–130.
5. Garrard, G. *Ecocriticism*. 2nd ed. – London: Routledge, 2012.